

BLIPPAR DASTURIDAN FOYDALANIB TA'LIMIY ILOVA YARATISH

Dilnozaxon Saidkarimxonova,

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
“Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
dsaidkarimxonova@gmail.com,
telefon raqami:+99897 604 70 27


Annotatsiya:

Ushbu maqolada pedagoglar uchun AR platformalaridan biri BlippARdan foydalanishning imkoniyatlari va afzalliklari online platforma orqali keng yoritilgan.



Kalit so‘zlar: AR, Kengaytirilgan haqiqat, to‘ldirilgan borliq, QR kod.

BlippAR — kengaytirilgan haqiqat (Augmented Reality, AR) texnologiyasidan foydalangan holda turli interaktiv tajribalar yaratishga imkon beruvchi dastur. Ushbu texnologiya foydalanuvchilarga real dunyo ob‘ektlarini raqamli kontent bilan boyitish imkonini beradi, ya’ni smartfon yoki planshet kamerasi orqali ko‘riladigan narsalar ustiga qo‘shimcha ma’lumotlar, tasvirlar, videolar va 3D modellari kabi elementlar qo‘shish imkoniyatini yaratadi. Maqolada Blippar dasturidan foydalanishning imkoniyatlarini yoritilgan. Eng muhimi, ushbu dastur AR texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, ushbu dasturni ta’lim tizimi uchun ko‘plab imkoniyatlari mavjud. Bunda dasturda ta’limiy platforma yaratilib, unda turli xil videoroliklar, taqdimotlar, elektron kitoblar, ijtimoiy tarmoqlarga sahifalarni yuklash mumkin. Bu imkoniyatlar yangi texnologiya bo‘lib, hali ko‘pchilik tomonidan ushbu dastur imkoniyatlari ta’lim sohasida qo‘llab ko‘rilmadi. Blippar yordamida qanday loyiha yaratish mumkin? Buning uchun quyidagi ketma-ketliklar bajariladi:

- <https://www.blippar.com/> saytiga kiring va ro‘yxatdan o‘tishni tanlab, elektron pochta va parolni yozishdan boshlang;



- Platformaga kirayotganda, "Yangi loyiha yaratish" variantini tanlashingiz kerak, bu yerda siz loyihaga berishni xohlagan nomingizni ko'rsatishingiz kerak. Keyin quyidagi bosqichlarni bajaring:
- Blipp yarating, bu siz yaratayotgan Virtual Reallik tajribasidagi faollashtiruvchi tasvirni anglatadi.
- Ko'rishingiz mumkinki, tarmoq Blippni 2D yoki 3D formatida yuklaydi.
- Bu dasturda siz Blipp bilan o'zaro aloqada bo'ladigan matnlar, geometrik raqamlar, ranglar va harakatlar orasidagi turli xil variantlarni ko'rishingiz mumkin.




- Bundan tashqari, ta'lim sohasida sizga yordam beradigan audio va ma'lumotlarning turli elementlarini qo'shishingiz mumkin.
- Xuddi shu tarzda, ijtimoiy tarmoqlar va telefon raqamlari kabi aloqa ma'lumotlari biriktirilishi mumkin.

Blippa dan qachon foydalanish mumkin?


Ushbu dasturdan dars jarayonida bemalol foydalansa bo'ladi. O'qituvchi avvaldan mavzuga mos holda platforma shakllantiradi va o'quvchilar rasmni skaner qilgan holatda mavzuga oid qo'llanmalardan, topshiriqlardan foydalanadilar. Bu ayniqsa, turli xil giperurojaatlarni bir joyda yig'ib foydalanuvchiga qulayliklar yaratadi.



BLIPPAR dasturi bo'yicha Google Classroom ta'limiy kursiga kirish. Kursga kirish uchun mobil telefonga Play Marketdan Blippar ilovasini yuklab olinadi. Sozlamalarga kirib Kurs kodi kiritiladi. Kirish uchun qo'g'ozdagi yoki elektron rasm(yuqoridagi) skaner qilinadi.



Kurs kodi dasturda ko'rsatiladi va kirish uchun yozuvga kiriladi. Dasturda ushbu bloklar joylashgan bo'lib har biriga biror obyekt birlashtirilgan. Telefon ekranida quyidagi natijalarni ko'rish mumkin.



Ushbu QR kodni skanerlash orqali You Tubeda dasturning to'liq ko'rinishini ko'rish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Raqamli transformasiya sharoitida umumta'lim maktabi o'qituvchilarining kasbiy salohiyatlarini oshirishini tashkil etish muammolari. М Файзиева. Общество и инновации 4 (3/S), 222-232

2 Usmonqulov Sh.U., Yermatova N.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish monitoringi// O'zbekistonda Pedagogika fani va uning istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. -Toshkent: O'zPFITI, 2019.–B. 280-281.

3 Usmonkulov Sh.U. Didactic system of the process of development of professional and pedagogical competence of future teachers of computer science on the basis of integrative approaches // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal –India, 2020-№12. -P. 29-35. (Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13

4 Dilnozaxon Saidkarimxonova. TO'LDIRILGAN BORLIQ ILOVALARINI YARATISH DASTURLARI BILAN ISHLASH. Journal of New Century Innovations, 54(3), 16–19. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/14751>

